

**JAMOATCHILIK NAZORATI VA UNING DAVLAT BOSHQARUVI  
SAMARADORLIGINI OSHIRILISHIDAGI AHAMIYATINING  
IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI**

**Ibragimov Mirfayz Ikrom o'g'li**

**Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti**

**E-mail: [mirfayzibragimov1126@gmail.com](mailto:mirfayzibragimov1126@gmail.com)**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada jamoatchilik nazoratining huquqiy asoslari, subyektlari va ularni amalga oshirish mexanizmlari amaldagi qonunchilik hamda so'nggi islohotlar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, jamoatchilik nazoratining asosiy subyektlari sifatida fuqarolar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, siyosiy partiyalar va ommaviy axborot vositalarining huquqiy maqomi va vakolatlari yoritilgan. Bundan tashqari, jamoatchilik nazoratining obyektlari, uni amalga oshirish shakllari hamda amaliy muammolar o'rganilib, jamoatchilik nazoratini rivojlantirish fuqarolik jamiyatini mustahkamlash va davlat organlari faoliyatining ochiqligi hamda hisobdorligini ta'minlashda muhim omil ekanini asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** jamoatchilik nazorati, fuqarolik jamiyati, jamoat birlashmalari, ommaviy axborot vositalari, jurnalist tekshiruvi, siyosiy partiyalar, strategiya.

**СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ОБЩЕСТВЕННОГО  
КОНТРОЛЯ И ЕГО РОЛИ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ  
ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ**

**Ибрагимов Мирфайз Икром угли**

**Докторант Бухарского государственного университета**

**E-mail: [mirfayzibragimov1126@gmail.com](mailto:mirfayzibragimov1126@gmail.com)**

**Аннотация:** В данной статье на основе действующего законодательства и последних реформ проведён анализ правовых основ общественного контроля, его субъектов и механизмов реализации. Раскрываются правовой статус и полномочия основных субъектов общественного контроля - граждан, органов самоуправления граждан,

негосударственных некоммерческих организаций, политических партий и средств массовой информации. Кроме того, рассмотрены объекты общественного контроля, формы его осуществления и существующие практические проблемы. Обосновано, что развитие общественного контроля является важным фактором укрепления гражданского общества, а также обеспечения открытости и подотчётности деятельности государственных органов.

**Ключевые слова:** общественный контроль, гражданское общество, общественные объединения, средства массовой информации, журналистские расследования, политические партии, стратегия.

## **A SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF PUBLIC OVERSIGHT AND ITS ROLE IN ENHANCING THE EFFECTIVENESS OF PUBLIC ADMINISTRATION**

**Ibragimov Mirfayz Ikrom ugli**

**Doctoral Researcher, Bukhara State University**

**E-mail: mirfayzibragimov1126@gmail.com**

**Abstract:** This article analyzes the legal foundations of public oversight, its subjects, and implementation mechanisms based on current legislation and recent reforms. It examines the legal status and powers of the main actors of public oversight - citizens, citizens' self-governance bodies, non-governmental non-profit organizations, political parties, and the mass media. The study also considers the objects and forms of public oversight, as well as existing practical challenges in its implementation. It is substantiated that the development of public oversight is an important factor in strengthening civil society and ensuring the transparency and accountability of public authorities.

**Keywords:** public oversight, civil society, public associations, mass media, investigative journalism, political parties, strategy.

### **KIRISH**

O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, ochiqlik va oshkoralikni

ta'minlash hamda fuqarolik jamiyati institutlarining rolini kuchaytirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Xususan, 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida davlat organlari faoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlari imkoniyatlarini kengaytirish, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Bu esa jamiyat boshqaruvida davlat va fuqarolar o'rtasidagi o'zaro mas'uliyat hamda hamkorlik mexanizmlarini mustahkamlashga xizmat qiluvchi huquqiy asoslarni yaratishni taqozo etdi. Davlatimiz rahbari bu haqda to'xtalib o'tar ekan, shuni alohida ta'kidlaydi: "Shuni aniq tushunib olish lozimki, jamoatchilik nazorati – bu faqatgina davlat idoralari faoliyati ustidan nazorat emas, balki jamiyatning o'zini o'zi boshqarish usuli, boshqacha aytganda, fuqarolik jamiyatini taraqqiy toptirishning muhim omillaridan biridir. Shuning uchun fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha maslahat kengashi, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish markazi, nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi kelgusi yilda har bir soha va tarmoq bo'yicha jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning ta'sirchan tizimini yaratishga bosh-qosh bo'lishi va tashabbus ko'rsatishi lozim" [1].

## **METODOLOGIYA**

Mazkur maqolada jamoatchilik nazorati institutining huquqiy asoslari va subyektlari faoliyatini o'rganishda normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish, qiyosiy-huquqiy va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning asosiy manbalari sifatida 2017–2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi, "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonun, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda ommaviy axborot vositalari faoliyatini tartibga soluvchi qonun normalari o'rganildi. Huquqiy normalar mazmuni mantiqiy-tahliliy usul orqali sharhlandi hamda ularning o'zaro bog'liqligi tizimli ravishda ko'rib chiqildi. Shuningdek, jamoatchilik nazorati subyektlarining vakolatlari va funksiyalari o'zaro taqqoslash asosida tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida rasmiy huquqiy ta'riflar va qonunchilikda mustahkamlangan

mexanizmlarga tayangan holda xulosalar chiqarildi. Metodologiya amaldagi huquqiy baza doirasida nazariy-huquqiy tahlil olib borishga yo'naltirildi.

## **MUHOKAMA VA TAHLILLAR**

2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida davlat boshqaruvini isloh qilish, bu jarayonda fuqarolik jamiyati institutlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining rolini kuchaytirish, shuningdek, fuqarolarning faolligini oshirishga alohida e'tibor qaratildi. Ushbu strategiya doirasida bir qator yangi qonun hujjatlarini ishlab chiqish va qabul qilish rejalashtirildi. Shu asosda, 2018-yil 12-aprelda "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Mazkur hujjat O'zbekiston huquqiy tizimi tarixida yangi bosqichni boshlab bergan bo'lib, davlat organlari va muassasalar faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning huquqiy asoslarini belgilab berdi. Qonunda, xususan, 3-modda orqali jamoatchilik nazorati subyektlari aniq ko'rsatib o'tilgan.

**O'zbekiston Respublikasi fuqarolari.** Jamoatchilik nazorati subyektlari orasida O'zbekiston fuqarolari muhim o'rin egallaydi. Ular jamiyat va davlat boshqaruvida bevosita yoki o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega bo'lib, bu ishtirok jamoatchilik nazorati orqali davlat organlari faoliyati ustidan nazoratni yo'lga qo'yish shaklida amalga oshiriladi. Fuqarolar ushbu nazoratni nafaqat shaxsiy tashabbus bilan, balki turli jamoat birlashmalari yoki nodavlat notijorat tashkilotlari tarkibida ham olib borish huquqiga ega. Shu bilan birga, ularning ishtiroki faqat erkin va ixtiyoriy asosda bo'lishi lozim – hech kim fuqaroning bu jarayonda qatnashishiga majburlashga yoki ishtirokiga to'sqinlik qilishga haqli emas. Ayni paytda fuqarolar tomonidan amalga oshiriladigan jamoatchilik nazoratining shakllari va uslublarini aniqlash, shuningdek, ularning samaradorligini baholash dolzarb masalalardan biri sanaladi. Ammo "Ichki ishlar organlari to'g'risida" [2]gi Qonunda mazkur tizim ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatilishi uchun fuqarolarning bu boradagi vakolatlari aniq qilib belgilanmagan [3].

**Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari.** O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 12-apreldagi "Jamoatchilik nazorati to'g'risida" [4]gi O'RQ-474-sonli Qonunining 14-moddasi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan davlat organlari mansabdor shaxslarining hisobotlari va axborotini eshitish kabi muhim nazorat shaklini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida" [5]gi qonunining 11-moddasiga asosan, mahallaning eng oliy organi hisoblangan Fuqarolar yig'ini jamoatchilik nazorati asosida quyidagi vakolatlarni amalga oshiradi:

***birinchidan,*** har chorakda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri hamda tuman va shaharlar ijro hokimiyati rahbarlarining fuqarolar yig'iniga tegishli sohalardagi faoliyati yuzasidan bergan hisobotlarini tinglaydi. Ushbu hisobotlar asosida tuzilgan bayonnomalar tegishli hokimiyat organlariga – ya'ni Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat va Toshkent shahar hokimliklariga yuboriladi. Ular ushbu bayonnomalar asosida hisob yuritadi va fuqarolar yig'inining murojaatlari ustidan nazoratni amalga oshiradi;

***ikkinchidan,*** ekologik muhofaza, sanitariya holati, hududni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish bo'yicha o'z hududidagi korxona, tashkilot va muassasa rahbarlarining hisobotlarini eshitadi hamda zaruratga ko'ra qarorlar qabul qiladi;

***uchinchidan,*** ichki ishlar bo'limlari tarkibidagi tayanch punktlar profilaktika inspektorlarining huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha bergan hisobotlarini belgilangan tartibda tinglaydi;

***to'rtinchidan,*** hududdagi oilaviy poliklinikalar va qishloq vrachlik punktlari rahbarlarining axborotlarini eshitadi;

***beshinchidan,*** o'z hududida qonunlar va boshqa normativ hujjatlarning ijrosini, tadbirkorlar huquqlari va manfaatlariga rioya etilishini, kommunal xizmatlar sifati, uy-joy atrofini saqlash tartibi, qurilish normalari, shuningdek yer resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish bo'yicha jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi.

Mazkur vakolatlarning ahamiyati shundaki, mahalla fuqarolar yig'ini o'z hududidagi barcha davlat idoralari va mansabdor shaxslarning faoliyati yuzasidan hisob berishini ta'minlab, ular ustidan jamoatchilik asosida muhim qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladi [6]. Bu esa o'z navbatida, fuqarolik jamiyatining muhim institutlaridan biri hisoblangan mahalla fuqarolar yig'inlari davlat organlari va muassasalari hamda ularning mansabdor shaxslari faoliyati yuzasidan jamoatchilik nazoratini o'tkazish orqali mahalladagi mavjud muammolar, fuqarolar hayotiga oid dolzarb masalalarni o'z vaqtida yechish imkoniyatini yanada oshiradi.

**Qonunchilikda belgilangan tartibda ro'yxatga olingan nodavlat notijorat tashkilotlari.** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIII bobi jamoat birlashmalariga bag'ishlangan bo'lib, 69-moddadan 75-moddagacha bo'lgan normalar ushbu institutning konstitutsiyaviy maqomini belgilab beradi. Xususan, 70-moddaga ko'ra, O'zbekistonda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, ilmiy jamiyatlar, ayollar tashkilotlari, faxriylar, yoshlar va nogironlar uyushmalari, ijodiy tashkilotlar, ommaviy harakatlar hamda boshqa fuqarolik birlashmalari jamoat birlashmalari sifatida tan olinadi [7]. Mutaxassislar nohukumat tashkilotlarni (ingliz tilida "non-governmental organizations" (NGO) fuqarolik jamiyatining asosiy instituti deb hisoblashadi. "Nodavlat notijorat tashkilotlar to'g'risida" [8]gi qonunga ko'ra, "Nodavlat notijorat tashkilot – jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foйда) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini o'zi boshqarish tashkilotidir".

Qonunchilikda, xususan Konstitutsiya va Fuqarolik kodeksida ko'rsatilgan turli tijorat maqsadiga ega bo'lmagan tashkilotlar bilan nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) o'rtasidagi o'zaro munosabatlar aniq belgilab qo'yilgan. Jumladan, qonunning 10-moddasida NNTlar jamoat birlashmalari, ijtimoiy fondlar, muassasalar yoki qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa shakllarda tashkil etilishi mumkinligi ko'rsatib o'tilgan. So'nggi yillarda mamlakatda fuqarolik jamiyati institutlari, xususan NNTlarning ijtimoiy faolligini kuchaytirish bo'yicha

qator amaliy chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada, ularning jamiyat va davlat hayotidagi roli sezilarli darajada ortdi. Agar 1991-yilda atigi 100 ta NNT faoliyat yuritgan bo'lsa, 2020-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan NNTlar va ularning bo'linmalari soni 10 502 taga yetdi. Ushbu tashkilotlarning faoliyatini huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va ular uchun qulay sharoitlar yaratish O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotini ta'minlashda muhim omil sanaladi.

Xalqaro huquqiy hujjatlarda tan olingan fuqarolarning uyushish huquqi milliy qonunchiligimizda to'liq aks etgan. Xususan, Konstitutsiyaning 38-moddasi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 21-moddasiga, 39-moddasi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 22-moddasiga mos. Ma'lumki, O'zbekiston mazkur xalqaro hujjatlarga qo'shilgan va boshqa huquqlar qatori fuqarolarning uyushish erkinligi huquqiga rioya etish majburiyatini olgan [9].

Jamoatchilik nazorati jamoatchilik kengashlari, komissiyalari va boshqa jamoatchilik tashkiliy tuzilmalari tomonidan ham qonunchilikka muvofiq amalga oshirilishi mumkin" [4]. Respublikamizning markaziy ommaviy axborot vositalarida ijtimoiy ahamiyatga ega mavzular bo'yicha jamoatchilik ongini shakllantirishda ko'pincha faqat rasmiy fikr doirasidagina cheklanib qolish holatlari kuzatilmoqda. Ijtimoiy fikrni badiiy-publitsistik uslubda shakllantiruvchi materiallar yetarli emas, shu bois matbuotda sud, ijro va qonun chiqaruvchi hokimiyat faoliyatiga oid dolzarb masalalar yuzasidan chuqur kontent tahlillar o'rniga ko'proq bayon tarzidagi yondashuv yoki oddiy statistik raqamlar bilan cheklanilmoqda. Shu o'rinda, davlat organlari matbuotda chiqqan tanqidiy materiallardan fuqarolarni jazolash vositasi sifatida foydalanmasligi muhimdir. Aks holda, jamiyatda matbuotga nisbatan sovet davridagidek qo'rquv va bosim vositasi sifatida qarash kayfiyati qayta paydo bo'lishi mumkin. Bu esa fuqarolarning matbuotga bo'lgan hurmatini pasaytirib, ularda ishonchsizlik va befarqlikni kuchaytiradi. Aslida esa fuqarolik jamiyatida jurnalistlar "to'rtinchi hokimiyat" vakili sifatida barcha hokimiyat tarmoqlari faoliyatini xolis va mustaqil

yoritishi orqali nafaqat matbuotning ijtimoiy mavqeini oshiradi, balki jamoatchilik nazoratining shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o'ynaydi [10].

OAV orqali jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish uchun "Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to'g'risida" [11]gi O'zbekiston Respublikasi qonunida belgilangan "Jurnalist tekshiruvi" institutidan foydalangan holda, materiallarni ko'proq tayyorlash kerak. Ushbu Qonunning 9-moddasida bu norma quyidagicha belgilangan: "Jurnalist o'z tekshiruvlarining natijalarini ommaviy axborot vositalari orqali tarqatish bilan birga, ularni davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va mansabdor shaxslarga taqdim etish orqali jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi lozim" [12]. Ta'kidlash joizki, jamoatchilik nazoratini qanday sohalarida amalga oshirish mumkinligi va qaysi davlat organlari vakolatlari ushbu nazoratning obyekti bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Amaldagi qonunchilikka muvofiq, davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari quyidagi faoliyat yo'nalishlarida jamoatchilik nazoratiga tortilishi mumkin:

***birinchidan***, ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy hujjatlar, qarorlar, shuningdek, davlat, tarmoq va hududiy rivojlanish dasturlarida jamoatchilik manfaatlari va fikrining inobatga olinishi;

***ikkinchidan***, fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlari, umuman jamiyat manfaatlarini himoya qiluvchi qonunlar talablarining bajarilishini ta'minlash;

***uchinchidan***, ijtimoiy va jamoatchilik manfaatlariga bevosita aloqador bo'lgan vazifalar va funksiyalarni bajarish;

***to'rtinchidan***, aholiga davlat xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha faoliyat;

***beshinchidan***, ijtimoiy sheriklik doirasida tuzilgan bitimlar, shartnomalar, loyihalar va dasturlarni amalga oshirish bo'yicha faoliyat" [4].

Mazkur normaning ahamiyati shundaki, birinchidan, jamoatchilik nazoratining obyektlari doirasini aniqlashtiradi, ikkinchidan, davlat organlari va

ularning mansabdor shaxslarining mas'uliyatini yanada oshirishga xizmat qiladi [6].

Har qanday qonun hujjatlarida belgilangan qoidalar va talablarning hayotga tatbiq etilishi ularni amalga oshirish mexanizmlari bilan chambarchas bog'liq. Ushbu qonunda esa jamoatchilik nazoratini amalga oshiruvchi fuqarolar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ro'yxatdan o'tgan nodavlat notijorat tashkilotlari hamda ommaviy axborot vositalarining huquq va majburiyatlari aniq ko'rsatib o'tilgan bo'lib, bu esa mazkur nazorat turining samarali amalga oshirilishiga zamin yaratadi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, jamiyatda oshkoralik va shaffoflikni ta'minlashda jamoatchilik nazorati mexanizmining o'rnatilishi, bu borada jamoatchilik nazorati subyektlari fuqarolar, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalarining bevosita ishtiroki ning faol ishtiroki muhim ahamiyatga ega. O'z navbatida, jamoatchilik nazorati subyektlari huquq va majburiyatlarining kafolatlanishini tartibga soluvchi normalarning o'rnini mustahkamlash va jamoatchilik nazorati mexanizmini takomillashtirib borish bugungi kunda hal etilishi lozim bo'lgan dolzarb vazifalardandir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. –T.: “O‘zbekiston”, 2020. –B.109.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentyabrdagi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi O‘RQ–407-sonli Qonuni // <https://lex.uz/docs/-3027843>
3. Otajonov A.A. Ichki ishlar organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning obyekti va subyektlari // Yurist axborotnomasi, 1-son, 1-jild, 2020. –B.64.
4. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 12-apreldagi “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi O‘RQ–474-son Qonuni // <https://lex.uz/ru/docs/-3679092>

5. O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 22-apreldagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi O'RQ–350-sonli Qonuni // <https://lex.uz/docs/-2156899>
6. Fayziyev Sh. Jamoatchilik nazorati to'g'risidagi qonun: asosiy yo'nalishlari va amaliyotda qo'llash masalalari // Yurist axborotnomasi, 3-son, 2018. -B.42.
7. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023. – 80 b.
8. O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 14-apreldagi "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi 763–I-sonli Qonuni // <https://lex.uz/docs/-11360>
9. Sarimsoqov J. NNTlar – jamoatchilik nazoratining subyekti sifatida // "Huquq va burch" ijtimoiy-huquqiy jurnal, № 12, 2020. –B.38.
10. Abduazimov O. Fuqarolik jamiyati va jamoatchilik nazoratida matbuotning o'rni // "Demokratlashtirish va inson huquqlari" ijtimoiy-ma'rifiy jurnal, № 2, 2006. –B.40.
11. O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 24-apreldagi "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi 402–I-sonli Qonuni // <https://lex.uz/docs/-9540>
12. Mamatov X. Davlat idoralari faoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazorati mexanizmlari: amaliyot va uni yanada takomillashtirish masalalari // "Fuqarolik jamiyati" ilmiy amaliy jurnal, № 3, 2018. -B.36.